

# Akademik Ravshan Sabirov bilan onlayn suhbat o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda o'tkazilayotgan "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasining bu galgi mehmoni biofizik, biologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi Sabirov Ravshan Zairovich bo'ldilar.

Ushbu onlayn suhbat Zoom platformasida bo'lib o'tdi. Unda Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biloglar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchi va o'quvchilari ishtirot etdi.



Akademik Ravshan Sabirov o'quvchilarga o'zining matab va talabalik davrlari, ilmiy izlanishlari, xorijlik olimlar bilan hamkorlik aloqalari haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etdi va o'quvchilar ham o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi hamda akademik Ravshan Sabirovga o'z minnatdorchiliklarini bildirdi.